

ANCESTRAL HERITAGE IS A PRICELESS TREASURE

Abduvohidova Shahribonu Akmalovna
Samarkand State Institute of Foreign Languages
princess13082001@gmail.com
Korakulova Rahima Alisher Qizi
Samarkand State Institute of Foreign Languages
Qoraqulovaaz01@gmail.com

Annotation: The role of our great ancestors and their legacy in world history has been revealed. It was noted that the value of their works is important and the study of their works is a topical issue in the formation of the spirituality of the younger generation, as well as the work being done in this direction.

Keywords: The heritage of our ancestors, Western scholars, Musa Muhammad al-Khwarizmi, Ahmad al-Farghani, Abu Nasr Farobi, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhan Beruni, Center for Islamic Civilization

AJDODLAR MEROSI – BEBAHO XAZINA

Abduvohidova Shahribonu Akmalovna
Samarqand davlat chet tillar instituti
princess13082001@gmail.com
Korakulova Rahima Alisher Qizi
Samarqand davlat chet tillar instituti
Qoraqulovaaz01@gmail.com

Annotatsiya: Buyuk ajdodlarimiz va ularning qoldirgan merosining dunyo tarixida tutgan o`rni ochib berildi. ularning asarlarining qiymati qanchalik muhim ekanini hamda yosh avlod ma`naviyatining shakllantirishda ularning asarlarini o`rganish hozirda dolzarb masala ekanini anglash hamda bu borada olib borilayotgan ishlar yoritildi.

Kirish so`zlar: ajdodlarimiz merosi, g`arb olimlari, Muso Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg`oni, Abu Nasr Farobi, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Islom sivilizatsiyasi markazi

Tarix kelajak ko`zgusi deganlaridek, uzoq asrlar davomida shakllangan milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, dunyo ilm-fani va rivojiga o`zlarining ulkan hissasini qo`shgan ajdodlarimizning bebaho merosini o`rganish, uning asosida yoshlarimizni komil inson qilib tarbiyalash jamiyatda barqaror ijtimoiy-ma`naviy muhitni ta`minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Al-Xorazmiyning algoritmlarisiz hozirgi zamon raqamli texnologiyalari, buyuk Ibn Sinoning “Tib qonunlari”siz zamonaviy tibbiyot, Beruniy dahosi yaratgan asarlarsiz arifmetika, matematika, astronomiya, ma`danshunoslik, Farg`oni hamda Mirzo Ulug`bekning

mashaqqatli mehnatlarisiz fazo astronomiyasi hozirgi darajaga yetmagan, yeta olmagan bo`lar edi. Qolaversa, sovun, qalam, gul yog`i, hammom, kanalizatsiya kabi oddiy va muhim ashyo, inshootlar ham ilk Musulmon renessansi paytida kashf qilindi hamda Ispaniya orqali tijorat yo`li bilan Yevropa va dunyo mamlakatlariga tarqaldi. Har bir ilmiy harakatni rivojlantirishda, uni ilm toliblariga yetkazishda va nihoyat, o`sha ilmiy harakat samarasini kelajak avlodga qoldirib ketishda kitoblar muhim o`rin egallaydi. Ilm bor joyda kitob ko`payadi. Kitob bor joyda esa ilm rivojlanib boradi. Buyuk ajdodlarimiz merosi – insoniyatning ma`naviy boyligi hisoblanadi. Yurtimizda ilmning rivojlanib borish bosqichini ko`rib o`tadigan bo`lsak, Mavarounnahr diyoridan chiqqan Muso Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg`oniy, Abu Nasr Farobi, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy kabi olimlarning nomlari islom hazorasidan tashqariga chiqib, Yevropa ilm-fanida ham o`chmas iz qoldirgan. Al-Xorazmiy algebra faniga asos soldi, algebra istilohi uning “Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr val-muqobala” risolasining nomidan olingan. Olimning ismi esa “algoritm” shaklida fan olamida abadiy o`rnashib qoldi. Uning “Zij”i Yevropada ham, Sharqda ham astranomiya fanining rivojlanishiga katta turtki bo`ldi. G`arb olimi Jorj Sarton Beruniyni “O`z davrining eng buyuk matematigi va agar barcha shart-sharoitlar inobatga olinsa, barcha davrlarning ham eng buyuklaridan biri”, deya ta`kidlagan edi. Ahmad al-Farg`oniyning falakshunoslikka oid “Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum kitobi” XII asrda boshqa yevropa tillariga tarjima qilinib, lotincha “Alfraganus” nomi bilan G`arb universitetlarida bir necha asr mobaynida astranomiya fanidan asosiy darslik sifatida o`qitildi. Abu Nasr Farobi G`arbda “Sharq Arastusi” nomi bilan mashhur bo`lgan va uni Arastudan keying “Ikkinci muallim” deya e`tirof etishgan. Abu Rayhon Beruniyning esa ilm-fan sohasida qilgan ishlarini sanab tugatish qiyin. Kolumbdan ancha avval ummon ortida qit`a borligini aytgan, Galileydan 600 yil oldin Yer sayyorasining aylanishini isbotlab, izohlab bergen, kosinuslar teoremasini Ventdan 500 yil oldin kashf qilgan buyuk allomamizning “Geodeziya”, “Hindiston”, “Ma`danshunoslik”, “Saydona” asarlari o`sha paytlardayoq sharq-u g`arbda mashhur bo`lgan. Ibn Sino va uning “Al-qonun” kitobi Yevropada ham tibbiyat uchun asos vazifasini o`tagan. Bu kitob olti yuz yil mobaynida Yevropa universitetlarining o`quv qo`llanmasi sifatida tan olingan hamda ilk bor 1473-yilda Yevropada, 1500-yilga kelib 16 marta chop etilganidan so`ng, keyingi asrlarda nashrlar ketma-ketligi o`n yettinchi asr yarmiga qadar uzluksiz davom etgan. Yevropaliklarning tan olishicha, Ibn Sino 29ta ilmning ixtirochisi bo`lgan. Markaziy Osiyoda 750-1150 yillarda kuzatilgan Ilk uyg`onish davri tarixiy bosqichi, shu davrda yashagan Buxoriy, Termiziy, Xorazmiy, Ibn Sino, Beruniy, Farg`oniy kabi nafaqat islom xazorasi, balki bashariyat sivilizatsiyasiga o`z ilmiy asarlari va kashfiyotlari bilan hissa qo`shgan mutafakkirlar hamda olimlar merosini jamlash, saqlash, targ`ib qilish orqali islomning asl mohiyati tinchlik, bag`rikenglik, bunyodkorlik ekanini ko`rsatib berish g`oyasi olajanob va dolzarb, deya e`tirof etilmoqda. Hozirda buyuk ajdodlarimiz merosini yanada chuqur o`rganish maqsadida yurtimizda ko`plab ishlar olib borilmoqda. Jumladan, Toshkentda Islom sivilizatsiya markazining barpo etilishi hamda uning muzeysi va kutubxonasini shakllantirilishi firkimizning tasdig`idir. Ushbu kutubxonada hozirda qabul qilingan yangi manbalar orasida ulug` shoir va mutafakkir Abdurahmon Jomiy 1492-yilda o`z qo`li bilan ko`chirgan “Al-Qofiyaga sharh” asari, 1000 hijriy yilda o`ta nafis yozuvda jamlangan Qur`oni karim qo`lyozmasi, Zayn al-Din Jurjoniying (1040-1136) tibbiyotga bag`ishlangan “Xorazmshohlar xazinasi”, Xiva xoni Muhammad Rahimxon II — Feruzning o`zi hayotligida ko`chirilgan devoni va islomshunoslik, falsafa, fiqhga oid boshqa ko`plab asarlar bor. Ayni paytda bu asarlar mutaxassislar tomonidan

jiddiy o`rganilmoqda. Bundan tashqari, ilm-fan, madaniyat va sport homiysi Alisher Usmonov tomonidan markazimiz kutubxonasiga hadya qilingan bebafo 5 mingga yaqin ilmiy manbani o`z ichiga olgan “Sharq va G‘arb” jamlamasining 7 tildagi ilmiy fixristi, jadidchilik nomini olgan, aslida ma`rifatchi ajdodlarimiz asarlarining fixristi, Kolumb faoliyatida Farg`oniy va Ibn Sino ilmiy merosining ta`siri to`g`risida yaratilgan “Dunyo qiyofasi” asarini lotin tilidan o`zbekchaga tarjima qilish ishlari yaqin kelajakda rejalashtirilgan. Xulosa o`rnida shuni aytib o`tish joizki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ulkan islohotlar darhaqiqat 750-1150 yillardagi Birinchi Uyg`onish davri, 1370-1507 yillardagi Ikkinci Uyg`onish davridan keyin Uchinchi Uyg`onish davriga qadam qo`yayotganimizdan darak beryapti. Keyingi yillarda yurtimizda ilm-fan, ma`naviyat va ma`rifat, ajdodlar merosi, xotirasi, diniy ma`rifat va tarbiya sohalaridagi islohotlar, yaqin va uzoq fursatlarga mo`ljallangan rejalar o`z samarasini berib bermoqda.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Xalqaro islom akademiyasi veb-sahifasi
2. www.ziyonet.uz veb-portalı
3. “Olam va odam, din va ilm”. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf.”Hilol-nashr”. 2019.